

## IQTISODIY ZO'RAVONLIK LARNING MAISHIY HAYOTGA VA OILAGA TA'SIRI

Chintosheva Feruza Olimovna

Toshkent tumani 2-sonli kasb-hunar maktabi Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada iqtisodiy zo'ravonlik tushunchasi, uning oiladagi munosabatlarga va oila a'zolarining ruhiyati va salomatligiga qay darajada ta'sir o'tkazishi haqida ma'lumotlar yoritib berilgan. Shu bilan bir qatorda, iqtisodiy zo'ravonlikning bolalarga salbiy zararlari, jahon tajribasida iqtisodiy zo'ravonlik qurbonlariga yordam ko'rsatish va ularni qo'llab – quvvatlash harakatlari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** iqtisodiy zo'ravonlik, hissiy farovonlik, moliyaviy nazorat, pul muomalasi, ruhan cho'kish, moliyaviy ishonchsizlik, ijtimoiyadolat markazi, munosabatlar krizisi.

Iqtisodiy zo'ravonlik deyilganda ma'lum bir shaxs yoki butun boshli oilaning jismoniy va hissiy farovonligida, ruhiy holatida bir qancha og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy resurslarni suiiste'mol qilish yoki ularni nazorat qilish tushuniladi. Bunday zo'ravonlik turli shakllarda bo'lishi mumkin, jumladan, pul muomalasini cheklash, bandlikni cheklash yokida uni doimiy nazoratta ushslash, birovning shaxsiy mulkiga egalik qilishga harakat qilish, uni o'g'irlash yoki yo'q qilish bilan tahdid qilish kabilar. Maishiy hayotta iqtisodiy zo'ravonlik oilaning har qanday a'zosi, masalan, ota – ona, turmushdagi sheriklar, yaqin qarindoshlar yoki oilaning boshqa a'zolari tomondan amalgalashish mumkin.

Zo'ravonlikning ushbu turi oilaga sezilarli darajada salbiy zarar yetkazib, moliyaviy ishonchsizlik, erksizlik, ruhan cho'kish, psixik iztiroblar va hattoki, jismoniy salbiy ta'sirga ham sababchi bo'la oladi. Iqtisodiy zo'ravonlik kishilarni ojiz, tuzoqqa tushib qolgan yoki oiladan tashqarida o'z o'rnini topa olmaslik, o'ziga bo'lgan ishonchni yo'qotishiga olib keladi. Bundan tashqari, iqtisodiy zo'ravonlik uzoq muddat davom etib oilaning moliyaviy barqarorligiga, oiladagi ijtimoiy munosabatlarga ta'sir qilishi mumkin va bu holda, uning oqibatlarini tuzatish yanada qiyinlashadi.

Butun dunyoda oilaviy zo'ravonlik bo'yicha kuzatilgan statistika va ishonch telefonlariga kelib tushgan murojaatlarga ko'ra, 99% holatda oilada zo'ravonliklarga iqtisodiy zo'ravonlik ta'sir o'tkazadi. Aytish joizki, erkaklarga nisbatan ayollar oilada iqtisodiy zo'ravonlikka duch keladi va oilada zo'ravonlikka uchragan ayollarning 50 foizi aynan iqtisodiy zo'ravonlikdan aziyat chekadi.

Oilanning katta a'zolari bilan bir qatorda iqtisodiy zo'ravonlik bolalarga ham yetarlicha zarar yetkazadi. Buyuk Britaniya Ijtimoiyadolat markazi ma'lumotlariga qaraganda, mamlakatda har beshinchi boladan bittasi oiladagi iqtisodiy zo'ravonlik va moliyaviy yetishmovchilikdan aziyat chekadi, ya'ni qarzdor oilalarda doimiy nizolar, munosabatlarda krizislardan kuzatiladi va bu bevosita bolalar ruhiyatiga ta'sir o'tkazadi.

Ma'lumotlarga qaraganda, bunday nizoli oilalarda o'sayotgan bolalarning ruhiy salomatligi buzilishi ehtimoli ikki barobarga yuqori ekani aniqlangan. Oiladagi iqtisodiy zo'ravonliklar iskanjasida ulg'aygan bolalar yoshlikdagi boshdan kechirgan iqtisodiy zo'ravonlik natijasida kelajakda o'z shaxsiy hayotida moliyaviy beqarorlikka uchrashi mumkin.

Iqtisodiy zo'ravonlikning salbiy oqibatlaridan biri, undan aziyat chekkan insonlar zo'ravonlikdan xolos bo'lishgach ham, o'ziga nisbatan yomon munosabatlarni, haqoratlarni bartaraf eta olmaslidir. Oilaviy zo'ravonliklar muammolari yoritib boriluvchi "Journal of family violence" jurnali ma'lumotlariga ko'ra iqtisodiy zo'ravonlikdan aziyat chekkan ayollar moliyaviy yetishmovchiliklar oqibatida yuzaga kelgan ishonchsizlik va qo'rquv oqibatida oiladan tashqarida ham o'zini muhofaza qila olmaydi.

Butun dunyo hukumatlari tomonidan iqtisodiy zo'ravonlikning oilaga ta'siri salbiy baholanib, unga qarshi chora - tadbirlar ishlab chiqilgan. Misol tariqasida, Amerika Qo'shma Shtatlarida "Ayollarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi" Qonun imzolangan bo'lib, unda moliyaviy masalalar va iqtisodiy zo'ravonlikka oid muhokamalar mavjud.

Shu bilan bir qatorda, dunyo bo'ylab bir qancha tashkilotlar oilada iqtisodiy zo'ravonlikdan aziyat chekkanlarga yordam ko'rsatadi. Masalan, Ijtimoiy adolat markazi tomomnidan tashkil etilgan "O'tmisdagi oilalar" dasturi oilalarga qarzlardan qutulish va moliyaviy barqarorlikka erishish uchun ko'maklashadi. Ushbu dastur doirasida, nafaqat oilalarga moliyaviy maslahatlar berish, balki moliyaviy maslahatchilarni ham ish bilan ta'minlash amalga oshiriladi.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, iqtisodiy zo'ravonlik oiladagi zo'ravonliklarning eng keng tarqalgan turlaridan biri bo'lib, u shaxslar va oilalar farovonligiga jiddiy zarar yetkazadi. Uning salbiy oqibatlari faqatgina moliyaviy erksizlik bilan cheklanibgina qolmay, shaxslarning ruhiy va jismoniy salomatligiga salbiy ta'sir qiladi. Sha sababli, oilalarda iqtisodiy zo'ravonliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularning oldini olish va kishilarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash jamiyatimizning va ijtimoiy xodimlarning hayotida dolzarb hisoblanadi. Oilalarda iqtisodiy erkinlikni ta'minlash orqali nafaqat, bugungi hayotmizda, balki kelajak avlod hayotida ham iqtisodiy barqarorlikni kafolatlashimiz mumkinligini unutmaslik va buning uchun bor kuchimiz bilan harakat qilish har birimizning vazifamiz hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. National Domestic Violence Hotline. "Economic Abuse."
2. Centre for Social Justice. "Breakthrough Families."
3. Journal of Family Violence. "Barriers to leaving abusive relationships: Economic factors predicated of leaving."

- 
4. Domestic Shelters. "How Economic Abuse Affects Every Victim of Domestic Abuse."
  5. Women's Aid. "Economic abuse: a form of domestic abuse."
  6. Huffington Post. "The Devastating Impact of Financial Abuse on Women."